

Kichik tadbirkorlik
Yanvar-mart 2019 yil

E'tibor bering!

>2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 64,1%ni tashkil etdi.

>1,8 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.

>2019 yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 12,7 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-martida 1,8 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbati 24,9% ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda savdo (44,1) sanoatda (21,8), qurilish tarmog'ida (7,7) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga (6,4%), yashash va ovqatlanishda (7,9%), tashih va saqlashda (2,5%) tashkil etgan.

2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
Kichik korxonalar va mikrofirmalarning
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



savdo 44,1%



qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 6,4%



sanoat 21,8%



yashash va ovqatlanish xizmatlari 7,9%



qurilish 7,7%



Tashih va saqlash 2,5%

2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	11138	13335	2197
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	450	1804	1354
YaHM	%	67,0	64,1	-2,9
Sanoat	%	26,3	26,4	0,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,0	99,0	0,0
Investitsiya	%	69,1	61,2	-7,9
Qurilish	%	92,0	95,2	3,2
Savdo	%	81,2	74,5	-6,7
Xizmatlar	%	69,9	66,1	-3,8
Yuk tashish	%	91,0	90,3	-0,7
Yuk aylanmasi	%	88,0	88,1	0,1
Yo'lovchi tashish	%	94,0	94,0	0,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,1	96,1	0,0
Eksport	%	65,3	89,8	24,5
Import	%	96,7	98,9	2,2


Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Xorazm viloyati	450	1804
Urganch sh	122	347
Xiva sh	32	159
<i>Tumanlar:</i>		
Bog'ot	19	86
Gurlan	26	136
Qo'shko'pir	20	129
Urganch	69	272
Xazorasp	29	182
Xonqa	37	133
Xiva	21	115
Shovot	23	104
Yangiariq	35	76
Yangibozor	17	65

2019 yilda yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Urganch shahrida - 347 ta, Urganch tumanida - 272 ta, Xiva shahrida - 159 ta. Xonqa tumani - 133 ta, Xazorasp tumanida - 182 ta, Qo'shko'pir tumanida - 129 ta. Xiva tumanida-115 ta Shovot, Bog'ot, Yangiariq tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 97-105 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Yangibozor tumanida –65 tani tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi**



2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Urganch sh. - 19,2 %, Urganch tumani - 15,1 %, Xazorasp tumani – 10,1 %, Xiva sh. - 8,8 %, Gurlan tumani - 7,5 %, Xonga tumani - 7,4%, Qo'shko'pir tumani - 7,2%, Xiva tumani – 6,4%, Shovot tumani - 5,8%, Bog'ot tumani - 4,8%, Yangiariq tumani - 4,2%, eng past ko'rsatkich Yangibozor tumanida - 3,6%ni, tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Jami	450	1804
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	42	116
Sanoat	98	393
Qurilish	68	139
Savdo	151	795
Tashish va saqlash	24	45
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18	142
Axborot va aloqa	2	10
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	10	12
Boshqa turdagi xizmatlar	37	152

2019 yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 795 ta, shuningdek :

sanoatda - 393 ta;

qurilishda - 139 ta;

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 142 ta;

xizmatda - 152 ta ni tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar- mart 2019 y.	yanvar-mart 2018 y.	farq (+-)
Urganch sh	347	122	225
Urganch	272	69	203
Xazorasp	182	29	153
Xiva sh	159	32	127
Gurlan	136	26	110
Xonqa	133	37	96
Xiva	115	21	94
Shovot	104	23	81


2019 yil yanvar-martida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Urganch shahrida – 347 ta, Urganch tumanida– 272 ta, Xazorasp tumanida - 182 ta. Xiva shahrida bu ko'rsatkich 157 tani tashkil etdi, Gurlan tumanida - 136 ta, Xonqa tumanida - 115 ta. Xiva va Shovot tumanlarida bu ko'rsatkich 115-104 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 22,9 birlikda, Yangibozor tumanida 17,1 birlikda, Xiva shahrida 15,6 birlikda, Yangiariq tumanida 15,3 birlikda, Xiva tumanida 15,1 birlikda va Urganch tumanida 13,6 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 10-12 birlik oralig'ida Gurlan, Xonqa, Shovot, Qo'shko'pir, Bog'ot tumanlarida aniqlandi. Xazorasp tumanida 9,1 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Agar, 2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,3 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 12,7 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 1,4 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-martida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 26,4 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 99,0 %, qurilishda - 95,2 %, investitsiyada - 61,2 %, savdoda - 74,5 %, eksportda - 89,8 %, importda - 98,9 % va xizmatlar sohasidagi - 66,1 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-mart holatiga, %

2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 64,1 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-martida 67,0 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2019 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Xorazm	26,4	95,2	66,1	61,2
Urganch sh	43,8	94,2	39,9	43,4
Xiva sh	98,4	98,5	91,6	75,1
<i>Tumanlar:</i>				
Bog`ot	60,7	95,1	95,9	74,0
Gurlan	25,0	100,0	97,9	86,3
Qo`shko`pir	46,2	93,3	95,4	40,3
Urganch	71,5	90,3	74,3	60,6
Xazorasp	4,2	99,5	95,7	58,8
Xonqa	20,5	97,5	97,5	85,7
Xiva	100,0	93,9	95,5	56,6
Shovot	89,3	100,0	96,2	61,6
Yangiariq	28,0	100,0	98,3	90,3
Yangibozor	19,7	90,4	96,9	82,9


Hududlar bo`yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Xiva tumani (100,0 %), Xiva shahar (98,4 %) va Urganch (71,5 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Xazorasp (99,5 %), Shovot (100,0 %) Gurlan (100,0 %), va Yangiariq (100,0 %) tumanlarni tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Yangiariq (98,3 %), Gurlan (97,9 %), Xonqa (97,5 %), Yangibozor (96,9 %), Shovot (96,2 %), va Bog`ot (95,9 %) tumanlari tashkil etadi.


Investitsiyada - Yangiariq (90,3 %), Gurlan(86,3 %) va Yangibozor(82,9 %) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat) larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yangibozor tumani - 100,0%, Yangiariq tumani -100,0%, Shovot tumani –100,0%, Xiva tumanida -100,0%, Xazorasp tumani - 100,0, Qo'shko'pir tumani -100,0% Gurlan tumani - 100,0%, Bog'ot tumanida – 100,0 %, eng past ko'rsatkichni Urganch tumani - 67,4%, va Urganch sh. - 57,1%ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-martda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (153,2 mlrd. so'm), Shovot (76,6 mlrd. so'm), Bog'ot (62,2 mlrd. so'm) va Xazoraspda (35,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Xiva shahar (11,5 mlrd. so'm) va Yangibozor tumanida (9,7 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Xiva tumanida (100,0%), Xiva shahri (98,4%), Shovot tumani (89,3%), Urganch tumani (71,5%), Bog'ot tumani (60,7%), Qo'shko'pir tumani (46,2%) va Urganch shahari (43,8%). Yangibozor (19,7%) va Xazorasp tumanida (4,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (270,6 mlrd. so'm), Xazorasp (152,7 mlrd.so'm), Urganch (118,8 mlrd. so'm), Gurlan (91,5 mlrd. so'm), va Xonqa (76,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (89,7 mlrd. so'm), Xiva tumani (54,1 mlrd.so'm), Urganch (35,9 mlrd. so'm) hamda Xonqa (30,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`sish sur`ati



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Urganch shahri (239,8 mlrd.so'm), Urganch (78,5 mlrd.so'm), Xazorasp (71,3 mlrd.so'm), Xonqa (56,5 mlrd.so'm) va Gurlan (53,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil I - chorak yakunlariga ko`ra , yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 126 respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalarini-27 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 21,4%), qurilish-9 (7,1 %), savdo-55 (42,6 %), xizmatlar sohasi-27 (22,6%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 8 (6,3%) tashkil etdi.

2019 yil I- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Urganch shahrida - 19,8%, Urganch tumani - 15,1%, Xonqa tumani - 11,9%, Xazorasp tumani - 10,3%, Xiva va Shovot tumanida - 6,3%. ulushini tashkil qildi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 33,3 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 66,7 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 41,8 % va 58,2 %, xizmatlar sohasida – 37,0 % va 63,0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 37,5 % va 62,5 %, sanoatda – 29,6 % va 66,7 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda-3,7 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil I-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 81,5 % sanoat korxonalari, 81,8 % – savdo, 92,6 % – xizmatlar, 100,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 88,9 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: T.Xodjaniyazov

Tel.: (0372) 230-87-69, 230-87-66